XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Isoхонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnoz Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUJJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdhamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	



O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI

Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich

Ma'mun universitet dotsenti vazifasini bajaruvchisi (PhD)

Email: sadullayev_rasul@mamunedu.uz

ORCID: 0009-0006-5812-6724

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri — atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasidir. O'zbekistonda ham ekologik muammolar tobora dolzarb tus olmoqda. Xususan, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havo hamda tuproqning ifloslanishi kabi holatlar mamlakat iqtisodiyoti va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim iqtisodiy vosita sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, barqaror taraqqiyot maqsadlari, yashil iqtisodiyot, yashil o'sish, yangi rivojlanish modeli, ob-havo, mol-mulk, yer, soliqlar, mahalliy budjet, barqaror taraqqiyot maqsadlari.

Abstract. The article states that environmental protection and sustainability are among the most pressing issues facing the global community today. Environmental issues are also becoming increasingly pressing in Uzbekistan. In particular, climate change, water depletion, and air and soil pollution negatively impact the country's economy and public health. Under these circumstances, the effective use of tax mechanisms can be considered an important economic tool for ensuring environmental sustainability.

Key words: sustainable development, sustainable development, green economy, green reality, new model development, climate, real estate, land, taxes, local budget, sustainable development.

Аннотация. В статье говорится, что одной из важнейших проблем, стоящих сегодня перед мировым сообществом, является охрана окружающей среды и обеспечение экологической устойчивости. Экологические проблемы становятся всё более актуальными и в Узбекистане. В частности, такие явления, как изменение климата, истощение водных ресурсов, загрязнение воздуха и почвы, негативно сказываются на экономике страны и здоровье населения. В этих условиях эффективное использование налоговых механизмов можно считать важным экономическим инструментом обеспечения экологической устойчивости.

Ключевые слова: устойчивое развитие, цели устойчивого развития, зелёная экономика, зелёный рост, новая модель развития, климат, недвижимость, земля, налоги, местный бюджет, цели устойчивого развития.

KIRISH

So'nggi yillarda butun dunyoda iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muvozanatning buzilishi global miqyosda eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ushbu holat nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasiga o'tish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va 'yashil' iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash va innovatsion iqtisodiy modelni shakllantirishga qaratilgan qat'iy siyosiy irodani ifodalaydi. Ushbu tashabbus O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini va global ekologik kun tartibidagi faol ishtirokini tasdiqlaydi.

O'zbekistonning tabiiy resurslari, iqlim sharoiti va demografik omillar "yashil" iqtisodiyot siyosatini samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, sanoatning o'sishi, energiya resurslariga



talabning ortishi va urbanizatsiya jarayonlari ekologik bosimni kuchaytirib, atrof-muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli tarzda olib borishni talab etmoqda. Shuning uchun "Yashil makon" kabi umummilliy tashabbuslar, "yashil" energiya dasturlari va ekologik soliq mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot siyosatini shakllantirish jarayonlari, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan milliy va xalqaro tashabbuslarning o'zaro uyg'unligi, shuningdek, ushbu sohadagi institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, "yashil" iqtisodiyotga o'tishning nazariy-amaliy jihatlari, uning iqtisodiy samaradorlik, aholi farovonligi hamda milliy raqobatbardoshlikka ta'siri o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi globallashtirish ekologik xavflar iqtisodiy siyosatni qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa an'anaviy o'sish modelini yashil o'sish yoki barqaror rivojlanish modeli bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Nicholas Sternning 2006-yildagi ishlari iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini baholab, erta va samarali siyosiy choralar ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan ancha arzonligini ta'kidlagan va karbon narxini belgilash mexanizmlarini ilgari surgan. IPCCning 2023-yilgi hisobotlari ilmiy dalillarni birlashtirib, iqlim xavfini kamaytirish va moslashishga yo'naltirilgan siyosatlarning ahamiyatini, shuningdek sektoral integratsiya, infratuzilma barqarorligi va investitsiyalarni qayta yo'naltirish zarurligini urg'ulaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda yashil o'sish va ekologik samaradorlik nazariyasini rivojlantirgan tadqiqotchilar orasida Partha Dasguptaning 2021-yilgi ishlari alohida ahamiyatga ega. U biologik kapitalni hisobga olmagan iqtisodiy tahlillarni noto'liq deb hisoblab, tabiiy kapitalni iqtisodiy hisob-kitoblarga kiritish zarurligini taklif etgan. Jeffrey Sachs esa 2015-yilda barqaror rivojlanish va milliy strategiyalarni integratsiyalash bo'yicha amaliy yo'riqnomalar bergan. Shu bilan birga, OECD va World Bank tomonidan ishlab chiqilgan Green Growth va Inclusive Green Growth konsepsiyalari davlat siyosati, moliyalashtirish vositalari hamda institutlarning rolini tartibga solish nuqtayi nazaridan muhim metodik asoslarni taqdim etadi. Bozor mexanizmlari orqali emissiyalarni kamaytirish, sug'urta va jamoat investitsiyalarini yo'naltirish, shuningdek texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning iqtisodiy samarasi haqida Aldy va Stavinsning 2012-yilgi ishlari amaliy va nazariy dalillarni taqdim etgan.

Milliy va mintaqaviy kontekstga bag'ishlangan tadqiqotlar yashil siyosatni amalga oshirishda institutsional imkoniyatlar, moliyaviy instrumentlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvning o'rni haqida amaliy saboqlar beradi. Xalqaro tashkilotlar va amaliy izlanishlar yashil loyihalarga investitsiyalarni yo'naltirish, yashil obligatsiyalar va karbon bozorlarini rivojlantirish, shuningdek kambag'allik va bandlikka ta'sirni yumshatish masalalarini batafsil tahlil qilgan. Shu bilan birga, ayrim akademik ishlar texnologik o'tishning distributiv ta'sirlarini hamda siyosiy-iqtisodiy to'sqinliklarni (masalan, lobbi va transformatsiya xarajatlari) ko'rsatib, siyosat dizaynida inklyuziv yondashuvni zarur deb hisoblaydi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali strategiyalar qatoriga integratsiyalashgan davlat siyosati, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati hamkorligi hamda moliyalashtirishda jozibador mexanizmlarning — soliqqa oid rag'batlar, kredit kafolatlari va jamoat-xususiy sherikliklarning — uyg'un kombinatsiyasi kiradi.

Umuman olganda, adabiyotlar yashil iqtisodiyot siyosatini shakllantirishda ikki asosiy yo'nalishni ta'kidlaydi. Birinchisi — iqtisodiy qaror qabul qilishda tabiiy kapital va iqlim xavfini hisobga oluvchi mexanizmlarni kuchaytirish. Ikkinchisi esa — o'tish jarayonini ijtimoiy adolatlilik tamoyillariga muvofiq rejalashtirish. Ushbu tamoyillar mamlakat miqyosida siyosat instrumentlari tanlanishi va prioritet sohalar — energetika, transport, qishloq xo'jaligi, sanoat infratuzilmasi — belgilanayotganda asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar shuni ham ko'rsatadiki, ilmiy asoslangan monitoring va baholash tizimlarini joriy etmasdan turib yashil siyosatlarning haqiqiy samaradorligini aniqlash mumkin emas. Shu sababli ma'lumot infratuzilmasini mustahkamlash va indikatorlar to'plamini standartlashtirish masalasi dolzarbdur. Agar so'z bir oz kulgili tus olsa ham, yashil siyosat chizilgan "rejadagi yo'nalish" emas, balki ijtimoiy hamda iqtisodiy tizimning yangi "operatsion tizimi" ekanini adabiyotlar qat'iy ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar (IPCC, OECD, World Bank) va milliy statistika agentliklarining ochiq ma'lumotlar bazalaridan, shuningdek, ilmiy maqolalar va hisobotlardan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslama va dinamik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, yashil iqtisodiyot siyosatini shakllantirish omillarining o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan, 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Ushbu qaror iqlim o’zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatish va “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, atrof-muhitni sog’lomlashtirish masalasi qanchalik dolzarb ekanini anglatadi.

Davlatimiz rahbarining so’zlariga ko’ra, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho’llanish, qazilma yoqilg’ilardan behisob foydalanish global isish jarayonlarini kuchaytirib, tabiiy ofatlarning ko’payishiga olib kelmoqda hamda atrof-muhit va aholi sog’lig’iga zarar yetkazmoqda.

Aslida, mamlakatimizning go’zal tabiati, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvlari asrlar davomida insoniyatni maftun etib kelgan. Biroq sanoatning rivojlanishi, energiya resurslariga talabning ortishi va tabiatga munosabatning o’zgarishi iqlim o’zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi hamda suv taqchilligi kabi muammolarni kun tartibiga chiqarmoqda.

Bu masalalarning yechimini topish uchun “Yashil makon” umummilliy loyihasining hayotga joriy etilgani xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo’lgan bo’sh yerlarga ko’chat ekish, bog’-rog’lar barpo etish an’analarni qayta tikladi va ona tabiatga daxldorlik tuyg’usini yanada kuchaytirdi.

Yangi yilning mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi bu boradagi ezgu ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yashil boyliklar salomatligimiz va farovon hayotimiz manbai ekanini yanada teranroq anglashga zamin yaratadi.

O’zbekiston BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida xalqaro majburiyatlarni izchil bajarayotgan davlatlardan biridir. Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyotga o’tish respublikamizga xalqaro hamjamiyat bilan yaqin aloqalar o’rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilgan “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi bugungi kunda dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o’sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg’unlashdi. Bu, o’z navbatida, jahon iqtisodiyotining barcha yo’nalishlari — qishloq xo’jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika va qurilish sohalari “yashil” tus olishi zarurligini anglatadi.

Zamonaviy texnologiyalar. Yashil iqtisodiyotga o’tishda innovatsiyalarni qo’llash alohida ahamiyatga ega. Kelayotgan yilda ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish ustuvor yo’nalishga aylanib, yangi energiya manbalarini yaratish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishni rag’batlantirish yo’lga qo’yiladi.

Jamoatchilik ishtiroki. Atrof-muhitni asrashda har bir fuqaroning o’rni beqiyos. 2025-yilda jamoatchilik faolligini oshirish maqsadida turli tadbirlar o’tkazilishi, ekologik tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, atrof-muhit haqida xabardorlikni oshirish va yosh avlodga ekologik tarbiya berish ishlari diqqat markazida bo’ladi.

Albatta, mazkur omillarni ta’minlash uchun me’yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqishga davlatimiz tomonidan uzoq yillardan beri e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqida “2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to’la hamohang ekanini ta’kidlab o’tgan [Rustamovich, 2019].

“Harakatlar strategiyasi”da mo’ljallangan tarkibiy o’zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi maqsad va vazifalar belgilangan¹.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan dasturiy hamda maqsadli vazifalar sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik holatni yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o’tkazish tartibini qayta ko’rib chiqish va xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish zarurligi ta’kidlangan².

O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PP-436-son qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

Strategik maqsadlarga erishishga mo’ljallangan 2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o’tish va “yashil” o’sishni ta’minlash dasturi;

Sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o’tish va energiya tejamkorligini ta’minlash bo’yicha konsepsiya; 2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o’tish va “yashil” o’sishni ta’minlash bo’yicha harakatlar rejasi;

1 Mirziyoyev Sh.M., 2020-yil 25-yanvar, №19 (7521)

2 https://api.mf.uz/media/document_files/yillik_hisobot.pdf



Ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari;

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash tarkibi yangilandi;

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sish bo'yicha donorlarning muvofiqlashtirish guruhi tasdiqlandi.

Mazkur hujjatlar "yashil iqtisodiyot"ning barcha yo'nalishlari bo'yicha qonunchilik asosida ish olib borish imkoniyatini beradi.

Rivojlangan mamlakatlardagi "yashil soliqlar" tajribasini o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekistondagi soliq tizimini takomillashtirish mumkin. Masalan, Shvetsiya, Germaniya va Niderlandiyadagi ekologik soliq tizimlari o'rnak sifatida e'tiborga loyiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologik barqarorlikni ta'minlash faqatgina tabiatni muhofaza qilish masalasi emas, balki iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonda soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali nafaqat budjet tushumlarini oshirish, balki ekologik muhitni yaxshilash, aholi salomatligini saqlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin. Buning uchun metodologik jihatdan puxta asoslangan, ilmiy hamda amaliyotga tayangan soliq siyosatini yuritish zarur.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) majburiyatlarini bajarish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy hamda nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan [PQ-4477-son].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamovich, S.Z. Specific Aspects of Implications of Foreign Investments on the Integration of the National Economy into the Global Economy. International Journal of Research, 6 (3), 2019. 451-458.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси.//Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь. № 19 (7521). 1-2 бетлар.
3. https://api.mf.uz/media/document_files/yillik_hisobot.pdf.
4. 2019-2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг "яшил" иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4477-сон қарори.//Lex.Uz.
5. Sadullaev, R.P. (2021). Issues of online cash machines and application of virtual cash system in entrepreneurs in Uzbekistan. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 62-68.
6. Sadullaev, R.P. (2025). Issues of eliminating tax avoidance opportunities due to the use of online tills and virtual cash registers in the digital economy. A.Journal of Teaching Theory and Practice 01(04), 23-27.
7. Sadullaev, R.P. (2025). Issues of calculation and improvement of income tax from individuals Web Of Journals, Journal of analysis and Inventions 3(4), 1-2.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>